ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

ONA TILI FANI TA'LIMIGA INTEGRATIV YONDASHUV

JIDU akademik litsey o'qituvchisi ***Mamedova Go'zaloy Buxarovna***

Annotasiya: Maqolada dars jarayoni samaradorligini oshirishda integratsion yondashuvdan foydalanish texnologiyalari haqida gap ketadi. Shuning bilan birga dars samaradorligini oshirish jarayonida amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan. Hamda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda integratson ta'limning ahamiyati haqida ham fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, dars jarayoni samaradorligini oshirishda integratsion yondashuvdan foydalanishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim o'rinlar to'g'risida va egallangan bilim, ko'nikma, malakalarning ba'zi mezonlari xususidagi fikrlar ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: *o'qitish jarayoni, pedagogik texnologiya, texnika, usul, samarali usullar, maqsad, vazifa, faollik, pirovard natija, kafolatli ta'lim, uzviylik, integratsiya, integratsion yondashuv.*

Mamlakatimizda ta'lim islohotlari natijasi o'laroq DTS, o'quv dasturlari va darsliklarning yangi avlodini yaratish mobaynida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan, dars talablariga mos keladigan ta'lim mazmuni bunday yangilanishning asosiy maqsadidir. O'qituvchining o'zi ta'limda integraцiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini amalga oshiradi. Shuning uchun ham har bir o'qituvchiga xos dars berish uslubini integraцiyaning alohida olingan bir ko'rinishi deb hisoblash mumkin. O'qituvchining ijodkorligi shundaki, u fan uchun ma'lum, ammo boshqalarga noma'lum jihatlarni, avvalo, o'zi loyihalaydi, so'ngra o'quvchilariga ham shularni o'rgatadi. Modomiki, shunday ekan, o'quvchilar tafakkurini o'stirish uchun manna shunday darslarini tashkil qilish orqali integraцiyani amalga oshirish samarali hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar 100 darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunga kelib, an'anaviy o'qitish o'rnini shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddatli rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida yangiliklar yaratish, mavjud nazariya va g'oyalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Asrlar davomida jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim – tarbiya tizimida ham o'z aksiga ega bo'lgan. Shu sababli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, yangilanishlarga muvofiq ravishda ta'lim-tarbiya mazmuni ham takomillashib borishi lozim. Mana shulardan kelib chiqqan holda qayd etish lozimki, XXI asrga kelib ta'limtarbiyada ham amalga oshiriluvchi islohotlar mana shu mantiqqa mos tarzda, jamiyatga xizmat ko'rsatishi lozim. Bu o'rinda noan'anaviy o'qitish shakli - integratsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab, uning qo'llanilish texnikasiga ko'ra, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo'ladi. Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo'la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatli holatga o'tishda asosiy omil bo'lib yuzaga chiqa oluvchi omil hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan'anaviy ta'lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o'quv materialining uyg'unlashuvini o'zida namoyon etadi. Hozirgi davrda ta'lim-tarbiya tizimida

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-8

integratsion jarayonlar juda tezkor darajada rivojlanmoqda. Shuning bilan birga tobora ommalashib borayotgan bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalar hayotga tatbiq etilmoqda. Ta'lim tarbiya jarayonida integratsiyalashgan tarbiya va ta'limning ustuvor o'rin egallashi jamiyat va ta'lim-tarbiya o'rtasida o'zaro aloqadorlikni qaror toptiradi. Barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish aynan mana shu yo'l orqali amalga oshiriladi. Shu bois ta'lim tizimida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya rivojiga uyg'un ravishda ta'lim – tarbiya mazmunini yangilab borish muhim talablardan biridir. Mustaqillikdan so'ng o'tgan vaqt mobaynida ushbu talabni inobatga olish orqali ta'lim-tarbiya mazmuniga integratsion g'oyalarni singdirishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Bu yo'nalishda, ya'ni "integratsiya" tushunchasining mohiyatini o'rganish, integratsion jarayonlar mazmunini tahlil qilish, pedagogik integratsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, o'zimizning sharoitda pedagogik integratsiyalarni yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish, mavjud pedagogik integratsiyalarni umumlashtirish va ommalashtirishdan iboratdir. Bugungi kunda ta'lim- tarbiya sohasida integratsion jarayonni amalga oshirish uchun yagona o'ziga xos mexanizm yaratilgan. Chunki ta'lim- tarbiyada integratsion jarayonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu axloqiy va estetik tarbiyaning integratsiyalashgan tizimi muammosini ham hal qilish imkoniyatini beradi. Shu o'rinda savol tug'iladi: integratsiya 101 nima, u qanday jarayon? "Integratsiya" so'zi lotincha integration - tiklash, to'ldirish, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya g'oyasi XVIII asrning yigirmanchi yillarida ingliz olimi G. Spenser tomonidan fanga kiritilgan. Integratsiya muammosini hal etish borasida olimlar birmuncha ishlarni amalga oshirganlar. Rivojlangan davlatlarda ta'lim mazmunini integratsiyalash borasida muhim va dolzarb ishlar amalga oshirilgan. Angliya, Yaponiya, Vengriya davlatlarda ta'lim mazmunini integratsiyalashga erishilgan. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, kommunikativ qobiliyatining o'sishiga, o'quvchilar o'rtasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. O'z darsini integratsiyalashgan usulda tashkil etayotgan o'qituvchi o'quvchisining yoshi, aqliy rivojlanish darajasi va albatta, qiziqishlari doirasiga mos tarzda vosita va usullar tanlaydi. Integratsion dars loyihasining tematikasi o'quv dasturining qaysidir masalasiga tegishli bo'lishi mumkin, bunda alohida qaralgan iqtidorli o'quvchilar va umuman, sinf o'quvchilaridagi mazkur mavzu yuzasidan o'zlashtirish darajasini belgilovchi bilimni chuqurlashtirish, o'rganish jarayonini differensiallashtirish maqsad qilib olinadi. Integratsion dars odatdagi darslardan: - aniqligi, ixchamligi, o'quv materialining ko'lami; - darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o'quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi; - berilayotgan o'quv materialidagi keng ko'lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi. Darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o'tishini, balki o'quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. 102 Xulosa o'rnida aytish mumkinki,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

o‘quv jarayonini yuqorida ta’kidlangan pedagogik xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etish dars samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi, kutilgan pirovard natijaning qo‘lga kiritilishini kafolatlaydi. Bunda pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, u orqali ta’lim jarayonida rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud bo‘lganligi sababli o‘quvchilarda dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit shakllantirish bilan bog‘liq jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva Sh. Loyihalar usuli // Kasbiy fanlar metodikasi. – Toshkent, 2013. – № 2. – B. 10-12.
2. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (ижтимоий-гуманитар йўналишидаги академик-лицейларда математика ўқитиш мисолида): Пед. фан. док. дисс. ...автореф. – Т., 2006. – 49 б.
3. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004.
5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
6. Xodjaev B.X. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo‘llari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: TDPU.
7. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.
8. Зиёмуҳаммедов Б., Абдуллаева Ш. Илғор педагогик технология. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2001.
9. Мавлонова Р., Раҳманқулова Н. Бошланғич таълимни интеграциялаш. – Т., 2011.